



**TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI**



*2024- yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:
(71) 203-88-20(21)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **3 976,0** mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **189,3** mln. AQSH dollariga yoki **5,0** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **3 976,0** +5,0 %

(2023- y.: **3 786,7**)



Saldo

2024- y.: **-2 543,2** (2023- y.: **-2 527,1**)



Eksport

2024- y.: **716,4** +13,8 %

(2023- y.: **629,8**)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **3 259,6** +3,3 %

(2023- y.: **3 156,9**)








Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 716,4 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 13,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 3 259,6 mln. AQSH dollariga (3,3 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -2 543,2 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-fevral oylari, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 984,6</p> <p>Eksport: 141,0 Import: 843,6</p> <p> 24,8 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 947,3</p> <p>Eksport: 123,6 Import: 823,7</p> <p> 23,8 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 280,8</p> <p>Eksport: 65,8 Import: 215,0</p> <p> 7,1 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 175,8</p> <p>Eksport: 51,9 Import: 123,9</p> <p> 4,4 %</p>	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 134,2</p> <p>Eksport: 3,9 Import: 130,3</p> <p> 3,4 %</p>
<p>Yaponiya</p> <p>TSA – 90,4</p> <p>Eksport: 2,8 Import: 87,6</p> <p> 2,3 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 88,8</p> <p>Eksport: 6,4 Import: 82,4</p> <p> 2,2 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 80,2</p> <p>Eksport: 4,2 Import: 76,0</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Chexiya</p> <p>TSA – 75,8</p> <p>Eksport: 8,5 Import: 67,3</p> <p> 1,9 %</p>	<p>BAA</p> <p>TSA – 72,7</p> <p>Eksport: 10,6 Import: 62,1</p> <p> 1,8 %</p>

Toshkent shahri jahonning 146 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (24,8 %), XXRda (23,8 %), Qozog‘istonda (7,1 %), Turkiyada (4,4 %) va Turkmanistonda (3,4 %) qayd etilgan.













TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)




Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	622,5	700,4	984,6
<i>Eksport</i>	92,9	162,5	141,0
<i>Import</i>	529,6	537,9	843,6
XXR	636,7	694,0	947,3
<i>Eksport</i>	137,1	96,9	123,6
<i>Import</i>	499,6	597,1	823,7
Qozog'iston	225,7	275,5	280,8
<i>Eksport</i>	49,1	54,1	65,8
<i>Import</i>	176,6	221,4	215,0
Turkiya	181,4	251,7	175,8
<i>Eksport</i>	47,6	56,5	51,9
<i>Import</i>	133,8	195,2	123,9
Turkmaniston	78,4	37,3	134,2
<i>Eksport</i>	9,8	10,9	3,9
<i>Import</i>	68,6	26,4	130,3
Yaponiya	26,4	9,0	90,4
<i>Eksport</i>	2,6	0,3	2,8
<i>Import</i>	23,8	8,7	87,6
Germaniya	129,5	500,6	88,8
<i>Eksport</i>	7,7	4,7	6,4
<i>Import</i>	121,8	495,9	82,4
Hindiston	60,3	56,4	80,2
<i>Eksport</i>	2,6	0,7	4,2
<i>Import</i>	57,7	55,7	76,0
Chexiya	16,5	20,3	75,8
<i>Eksport</i>	3,5	2,9	8,5
<i>Import</i>	13,0	17,4	67,3
BAA	55,4	63,2	72,7
<i>Eksport</i>	12,3	21,3	10,6
<i>Import</i>	43,1	41,9	62,1

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	AQSH	37,1	38,1	71,6
	<i>Eksport</i>	3,8	9,2	18,0
	<i>Import</i>	33,3	28,9	53,6
	Tojikiston	34,5	34,9	69,9
	<i>Eksport</i>	27,0	31,0	38,0
	<i>Import</i>	7,5	3,9	31,9
	Koreya Respublikasi	44,4	49,8	58,5
	<i>Eksport</i>	2,9	2,1	5,7
	<i>Import</i>	41,5	47,7	52,8
	Afg'oniston	54,7	52,1	55,0
	<i>Eksport</i>	54,4	52,0	54,3
	<i>Import</i>	0,3	0,1	0,7
	Litva	41,2	121,8	47,2
	<i>Eksport</i>	4,5	7,8	5,9
	<i>Import</i>	36,7	114,0	41,3
	Belarus	34,7	49,3	46,2
	<i>Eksport</i>	5,2	9,2	6,8
	<i>Import</i>	29,5	40,1	39,4
	Fransiya	23,0	85,6	44,5
	<i>Eksport</i>	1,7	0,1	3,1
	<i>Import</i>	21,3	85,5	41,4
	Buyuk Britaniya	21,3	48,3	44,4
	<i>Eksport</i>	8,0	13,1	19,9
	<i>Import</i>	13,3	35,2	24,5
	Qirg'iz Respublikasi	22,3	29,8	39,2
	<i>Eksport</i>	19,1	20,9	30,0
	<i>Import</i>	3,2	8,9	9,2
	Italiya	22,1	37,4	35,7
	<i>Eksport</i>	0,4	1,5	2,7
	<i>Import</i>	21,7	35,9	33,0



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar – fevral mln. AQSH doll.)*




2024- y.

2023- y.

Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,6 % ulush bilan 661,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 2,2 % ulush bilan 88,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga ko'paydi.



Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAdagi ulushi 2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 59,8 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, 1 597,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 302,1 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 295,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,8 %), Qozog'iston (7,1 %) hamda Tojikiston (1,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 1 352,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 244,4 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 1 107,7 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 1 025 taga yetdi va ular tomonidan 716,4 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltingan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 13,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	629,8	716,4	114,1	113,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,5	31,4	125,4	81,6	6,1	4,4
Ichimliklar va tamaki	12,0	10,7	2,2 m.	89,2	1,9	1,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,6	8,5	68,4	128,8	1,1	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	17,7	40,3	84,3	2,3 m.	2,8	5,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,1	0,0	100,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	33,2	42,4	72,3	127,7	5,3	5,9
Sanoat tovarlari	129,7	128,0	111,0	98,7	20,6	17,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	64,4	53,1	2,3 m.	82,5	10,2	7,4
Turli xil tayyor buyumlar	27,6	33,8	122,7	122,5	4,4	4,7
Boshqa tovarlar	5,2	8,1	0,0	155,8	0,8	1,1
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	294,8	360,0	108,3	122,1	46,8	50,3


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 49,7 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (17,9 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (7,4 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (5,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga kamaygan.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Afg'oniston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 70,4 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	162,4	141,0	174,7	86,8	1	1
XXR	96,9	123,6	70,7	127,6	2	2
Qozog'iston	54,2	65,8	110,4	121,4	4	3
Afg'oniston	52,0	54,3	95,6	104,4	5	4
Turkiya	56,5	51,9	118,7	91,9	3	5
Tojikiston	31,0	38,0	114,6	122,6	6	6
Qirg'iz Respublikasi	20,9	30,0	109,1	143,5	8	7
Buyuk Britaniya	13,1	19,9	163,9	151,9	9	8
AQSH	9,2	18,0	2,4 m.	195,7	11	9
BAA	21,3	10,6	172,8	49,8	7	10
Shvetsiya	0,2	9,3	3,4 m.	46,5 m.	53	11
Kanada	4,0	8,9	0,0	2,2 m.	21	12
Chexiya	2,9	8,5	83,3	2,9 m.	25	13
Gruziya	4,4	8,0	152,2	181,8	19	14
Ozarbajjon	5,5	7,2	99,5	130,9	17	15
Belarus	9,1	6,8	174,5	74,7	12	16
Polsha	3,0	6,4	81,3	2,1 m.	24	17
Eron	6,5	6,4	64,6	98,5	14	18
Germaniya	4,7	6,4	60,8	136,2	18	19
Litva	7,8	5,9	171,5	75,6	13	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, mln.AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 21,5 % bilan 154,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,3 % bilan 9,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 3 259,6 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (30,8 %), sanoat tovarlari (20,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 3 259,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 213,4 mln. AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	3 156,9	3 259,6	143,3	103,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	274,8	257,8	107,2	93,8	8,7	7,9
Ichimliklar va tamaki	17,3	31,2	118,0	180,5	0,6	1,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	35,1	31,9	96,2	90,9	1,1	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	139,9	335,2	104,6	239,5	4,4	10,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	51,4	22,8	197,6	44,4	1,6	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	484,9	427,6	133,4	88,2	15,4	13,1
Sanoat tovarlari	444,5	669,9	95,6	150,7	14,1	20,5
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	1361,9	1002,8	197,8	73,6	43,1	30,8
Turli xil tayyor buyumlar	134,6	149,7	105,0	111,3	4,3	4,6
Boshqa tovarlar	82,7	117,3	0,0	141,8	2,6	3,6
Xizmatlar	129,8	213,4	142,3	164,4	4,1	6,5

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 39,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida 146 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkmaniston, Turkiya, Yaponiya va Germaniya) jami importning 70,8 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	537,9	843,6	101,6	156,8	2	1
XXR	597,1	823,7	119,5	138,0	1	2
Qozog'iston	221,4	215,0	125,4	97,1	4	3
Turkmaniston	26,4	130,3	38,5	493,6	19	4
Turkiya	195,2	123,9	145,9	63,5	5	5
Yaponiya	8,7	87,6	36,6	10,0 m.	35	6
Germaniya	495,9	82,4	4,0 m.	16,6	3	7
Hindiston	55,6	76,0	96,4	136,7	10	8
Chexiya	17,4	67,3	133,8	3,8 m.	25	9
BAA	41,9	62,1	97,2	148,2	12	10
AQSH	28,9	53,6	86,8	185,5	18	11
Koreya Respublikasi	47,7	52,8	114,9	110,7	11	12
Fransiya	85,5	41,4	4,0 m.	48,4	8	13
Litva	114,0	41,3	3,1 m.	36,2	6	14
Belarus	40,1	39,4	136,4	98,3	13	15
Italiya	35,9	33,0	166,2	91,9	15	16
Tojikiston	3,9	31,9	52,0	8,2 m.	49	17
Saudiya Arabistoni	12,6	28,6	100,0	2,3 m.	31	18
Gruziya	15,4	27,3	99,4	177,3	27	19
Buyuk Britaniya	35,2	24,5	2,6 m.	69,6	16	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll.)



2024- y.

2023- y.

Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 15,6 % bilan 507,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 2,4 % bilan 79,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.